

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**

**«GIDROMELIORATIV ISHLARNI MEXANIZATSIYALASH»  
kafedrası**

**«QURILISH VA MELIORATSIYA MASHINALARI»**

**fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha**

**USLUBIY KO‘RSATMA**



**Toshkent-2022 y.**

Uslubiy ko‘rsatma institut ilmiy – uslubiy Kengashining «29» oktyabr 2021 yil «8» - sonli majlisida tasdiqlandi va chop etishga ruxsat etildi.

Uslubiy ko‘rsatmada « Qurilish va melioratsiya mashinalari» fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarning mazmuni, hajmi va bajarish usullari, har bir ish bo‘yicha bajariladigan hisobot mazmunlari bayon etilgan.

Ushbu ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tomonidan « Qurilish va melioratsiya mashinalari» fani bo‘yicha tasdiqlangan dastur asosida tayyorlandi.

Ko‘rsatma 5340700–Gidrotexnika qurilishi (suv xo‘jaligida) bakalavr ta’lim yo‘nalinishi talabalari uchun « Qurilish va melioratsiya mashinalari» fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun mo‘ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

**T.Usmonov., katta o‘qituvchi**  
**M.S.Karimov., katta o‘qituvchi**  
**A.U.Atajanov., katta o‘qituvchi**  
**L.Q.Babajanov., dotsent**  
**M.O.Xolbo‘tayev., assistent**  
**I.M.Turdibekov., assistent**  
**F.F.Yusupov., assistent**

**Taqrizchilar:**

**Usmanov Sh.** – O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi “Suv tejoyvchi ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantirish” boshqarmasi boshlig‘i

**Xakimov B.B.** – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti « Mashinalardan foydalanish va ta’mirlash » kafedrasinig dotsenti, PhD.

## KIRISH

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini rivojlantirish, ularning xavfsiz va beqaror ishlashini ta‘minlash, suv resurslaridan oqilona va tejamli foydalanish ko‘zda tutilgan.

Bu masalaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 27 noyabrda qabul qilingan №PP-3405 qaroriga asosan “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini va irrigatsiyasini yaxshilash bo‘yicha 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi” da e‘tibor qaratilgan [1].

Suv va qishloq xo‘jaligi majmuasida ishlab chiqarishni yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini ko‘paytirish, shuningdek, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning aniq rejali asoslarda olib borilishi natijasida xalqimizga xos, o‘zining mentalitetiga va xalqaro andozalarga mos keladigan xo‘jalik yuritishning yangi modeli tanlab olindi.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot - kommunikatsiya tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, talim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash, uni puxta o‘rganish, amaliy jihatdan qo‘llay olish va shunga o‘xshash bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarida qo‘llaniladigan mashina va mexanizmlardan unumli foydalanish, ularni har bir soha ishlari uchun to‘g‘ri tanlay bilish va asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash, ish unumini aniqlash kabi bir qator masalalarni hal etish muhim ahamiyatni kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, sug‘oriladigan yerlarda tuproqni meliorativ holatini yaxshilash asosan ularda qo‘llaniladigan texnikani zamonaviy va takomillashgan turlarini qo‘llash orqali erishiladi.

Etiboringizga havola qilinayotgan uslubiy ko‘rsatma texnik oliy yurtlarida «Gidrotexnika qurilishi (suv xo‘jaligida)» bakalavr ta‘lim yo‘nalinishi talabalari uchun «Qurilish va melioratsiya mashinalari» fani bakalvriat talim yo‘nalishlari bo‘yicha bilim olayotgan talabalarga qurilish va melioratsiya mashinalarini hisoblash va ularni tanlash uchun mo‘ljallangan.

## 1-AMALIY ISH

### **Mavzu: MASHINALARINING KINEMATIK VA GIDRAVLIK SXEMALARIDA QO‘LLANILADIGAN SHARTLI BELGILARNI O‘RGANISH**

**Ishning maqsadi:** Umumiy vazifalarga mo‘ljallangan mashinalarning kinematik va gidravlik sxemalarini shartli belgilarini o‘rganish va sxemalarini tuzish bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash.

#### **Ko‘rgazmali qurollar va anjomlar:**

1. Shartli belgilar va gidravlik chizmalar ifodalangan rangli suratlar.
2. Gidroyuritma qismlarining asli yoki nusxa (maket)lari.

#### **Ishning bajarilish tartibi:**

1. Kinematik sxemalar va gidroyuritmaning qismlarini va shartli belgilarini o‘rganing.
2. Gidroyuritma chizmasini chizing va uning ishlash asoslarini hamda har bir qismining vazifasini o‘rganing.
3. Gidromufta va gidrotransformatorning tuzilish va ishlash asoslarini o‘rganing.

#### **Kinematik sxemalarining shartli belgilari.**

Mexanizmlarning o‘zaro boglanishi hamda harakatni dvigateldan yoki boshqa energiya manbaidan ayrim mexanizmlarga uzatish usullari korsatilgan mashina mexanizmining shartli sxematik ifodasi mashinaning kinematik sxemasi deyiladi.

Chizmalarga qarab, mashinaning umumiy tuzilishini tezroq bilib olish, uning ishlash prinsipini anglash va harakatni dvigateldan ayrim mexanizmlarga uzatish usullarini tushinib olish uchun uning konstruktiv va kinematik sxemasi chiziladi.

Faqat asosiy uzel yoki mexanizmlari hamda ularning o‘zaro joylashish vaziyatlari, tuzilishi sxematik tasvirlangan mashinaning umumiy korinishi ifodalangan chizma mashinaning konstruktiv sxemasi deyiladi.

#### **Gidravlik uzatmalarning tasvirlari va ularni o‘rganish.**

Gidravlik uzatmalar tasviri nasos qurilmalari, rostlagichlar, gidromotorlar va boshqalarning konstruktiv tuzilishidan qat’iy nazar ularning bevosita aloqalarining bir-biriga bog‘liqliklarini ifodalaydi.

Gidravlik tasvirlarga quyidagilar bog‘liq boladi:

- ekskavatorning ish paytida har xil ishchi jihozlari orqali texnologik jarayonni bajarilish mumkinligi;
- ekskavatorning ish unumdorligiga, kovlash paytida boshqarishning qulayligi, bir necha operatsiya (jarayon)ni qoshib olib borishi (ko‘tarib-burilishi va orqaga qaytishi);
- ish jarayonida nasos qurilmalaridan ko‘proq foydalanib, nasoslardagi ishchi suyuqliklar hisobiga kamroqenergiya yoqotish;
- nasos qurilmalaridagi quvvatlardan foydalanib, (nasoslardagi ishchi suyuqlikladan foydalanib), xartum (strela), tirsak (rukoyat), cho‘mich (kovsh), va ekskavatorni ham harakatga keltirish mumkin.

Bosim ostidagi suyuqlikni bir tomonga yo'naltiruvchi nasos

Suyuqlikni turli tomonga yo'naltiruvchi nasos

Bir tomonga yo'nalgan suyuqlik hajmini o'zgartiruvchi nasos

Turli tomonga yo'nalgan suyuqlik hajmini o'zgartiruvchi nasos

Bir tomonga yo'nalgan suyuqlik hajmini o'zgartiruvchi gidromotor

Turli tomonga yo'nalgan suyuqlik hajmini o'zgartiruvchi gidromotor

Turli tomonga yo'nalgan suyuqlik hajmini o'zgartirmaydigan gidromotor

Shtokgi bir tomonlama harakatlanuvchi gidrosilindr

Shtokgi ikki tomonlama harakatlanuvchi gidrosilindr

Gidravlik boshqariladigan zolotnik

Elektrik boshqariladigan zolotnik

Qaytarish klapani


Suyuqlik miqdori o'zgartirilmaydigan drossel

Suyuqlik miqdori o'zgartiriladigan drossel

Ehtiyot klapani













Moy tozalagich (filtr)

Quvurlarni ochib, yopuvchi bekitgich (kran)



**1-rasm. Gidravlik chizmalarning shartli belgilari.**

	- val
	- sirpanuvchi radial podshipnik
	- tebranma radial podshipnik
	- radial-tayanchli, bir qatorli tebranma podshipnik
	- tayanch ikki qatorli podshipnik
	- detallarni qattiq birlashtirish (val bilan)
	- vallarni elastik birlashtirish

	- vallarni sharnirli birlashtirish		
	- vallarni teleskopik birlashtirish		
	- bir tomnlama, kulochokli mufta		
	- bir tomonlama, konusli mufta		
	- diskli mufta		- kolodkali tormoz
	- valdagi ishchi shkiv		- silindrik tishli uzatma
	- zanjirli uzatma		- siqilish prujinasi
	- konusli tishli uzatma		- dvigatel

2-rasm. Kinematik sxemalarning shartli belgilari.

## 2 – ISH

### Mavzu: MEXANIZM YURITMASINING KINEMATIK HISOBI

**Ishning maqsadi:** Ko‘rgazmali qurollar va boshqa vositalar asosida mashinalarning kinematik tasvirlarini va hisoblashni o‘rganish.

#### Ko‘rgazmali qurollar va anjomlar:

1. Mashina (mexanizm) yuritmasining kinematik chizmasi va shartli belgilar bo‘yicha rangli suratlar;
2. Mexanik yuritmaning asl nusxasi yoki modellari.

#### Ishning bajarilish tartibi:

1. Mexanik yuritmalar va ularning tasvirlarini kinematik chizmalarda o‘rganing.
2. Mexanizm yuritmasini kinematik chizmasini chizing.
3. Uzatishlar sonini aniqlash hisobini bajaring.

Har bir uzatmaning uzatishlar soni:  
tasmali uzatma uchun

$$i_1 = \frac{n_1}{n_2} = \frac{d_2}{d_1(1 - \varepsilon)}$$

Bu yerda:  $d_1$  - yetakchi shkiv diametri;

$d_2$  - yetaklanuvchi shkiv diametri;

$\varepsilon$  - sirpanish koeffitsienti (tasmali uzatma uchun  $\varepsilon = 0,02$ ).

zanjirli uzatma uchun

chervyakli uzatma uchun

tishli uzatma uchun

$$i_{II} = \frac{Z_4}{Z_3}$$

$$i_{III} = \frac{Z_{6(\kappa)}}{Z_{5(\varepsilon)}}$$

$$i_{IV} = \frac{Z_9}{Z_8}$$

Bu yerda:  $i_I, \dots, i_n$  – uzatish nisbati;

$Z_1, \dots, Z_n$  – gildaralardagi tishlar soni.

Vallargacha bolgan umumiy uzatishlar soni:

R – valigacha

M – valigacha

$$i_p = i_I + i_{II} + i_{III}$$

$$i_m = i_I + i_{IV}$$


R va M vallarning aylanishlar soni (chastotasi):

R vali uchun:

M vali uchun:

$$n_p = \frac{n_{dv}}{i_p}$$

$$n_m = \frac{n_{dv}}{i_m}$$



**3-rasm. Ijrochi mexanizm yuritmasining kinematik chizmasi.**

1-yetaklovchi shkiv; 2-yetaklanuvchi shkiv; 3-yetakchi yulduzcha; 4-yetaklanuvchi yulduzcha; 5-chervyak; 6-chervyak gildiragi; 7-kulachokli mufta; 8-tishli shestyernya; 9-tishli gildirak; 10-ish uskunasi; R va M-vallar.

## Ijrochi mexanizm yuritmasining kinematik hisobi uchun boshlang'ich ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Elektrodvigatelning aylanish soni, ayl/sek $n_{dv}$	24	16	25	17	24	15	14	26	27	15
2	1-shkivning diametri, mm $d_1$	150	280	250	120	150	140	130	160	200	190
3	2-shkivning diametri, mm $d_2$	250	300	400	200	280	210	240	260	310	320
4	3-yulduzchanning tishlari soni, dona $Z_3$	25	20	18	30	22	25	30	20	26	21
5	4-yulduzchanning tishlari soni, dona $Z_4$	50	45	40	65	60	75	80	65	60	70
6	5-chervyakning kirish soni, dona $Z_5$	2	1	3	1	2	3	1	2	2	1
7	6-chervyakli gildirak tishlar soni, dona $Z_6$	60	40	70	60	80	65	70	60	55	45
8	8-gildirakning tishlari soni, dona $Z_8$	hamma uchun 20 teng									
9	9-gildirakning tishlari soni, dona $Z_9$	62	46	68	50	62	48	54	76	68	60

**3-AMALIY ISH**

**MAVZU:YUK TASHUVCHI KONVEYYERLARNING ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH  
(Tasmali konveyer misolida)**

**Ishning maqsadi:** Boshlang'ich ma'lumotlar asosida tasmali konveyerning ish unumdorligini aniqlashni o'rganish.

**Ko'rgazmali qurollar va anjomlar:**

1. Rangli suratlar va adabiyotlar.
2. Konveyerning kichraytirilgan maketi va asl nusxasi.

**Ishning bajarilish tartibi:**

1. Tashish mashinalari togrisidagi ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Tegishli ma'lumotlar asosida tasmaning eni va dvigatel quvvatini aniqlang.
3. Konveyerning yurituvchi va taranglovchi baraban o'lchamlarini aniqlang.
4. Bajarilgan ish bo'yicha oqituvchiga hisobot bering.

Tasmaning zaruriy eni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$B = \sqrt{\frac{P_k}{0,16 \cdot v \cdot \gamma(s+1)}}, m$$

Bu yerda:  $P_k$  – konveyerning ish unumdorligi, t/soat;  
 $v$  – tasmaning tezligi, m/sek;  
 $\gamma$  – tashiladigan materialning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  
 $s$  – konveyerni kamayishini hisobga oluvchi koeffitsient (3-jadval).



Tasmaning eni B ni tanlashda tashiladigan materialning bo'laklarini kattalagini ham hisobga olish kerak.

Tasma quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- saralangan material uchun  $V \geq 3, 3a^1 \dots 0,2$  m;

- oddiy material uchun  $V \geq 2a \dots 0,2$  m;

Bu yerda:  $a^1$ - material bo'laklarining eng katta o'lchami, m;

a - bo'laklarning ortacha o'lchami, m.

Keyingi hisoblarni amalga oshirish uchun tasma enini katta qiymatlarini qabul qilamiz. Hisoblab topilgan tasmaning enini standart (andoza) ga yaqin bolgan eng katta qiymatgacha yaxlitlab olamiz.

Dvigatelning quvvatini aniqlaymiz. Konveyerning quvvati materialni harakatlanishi va konveyerning tasma-sini salt (xolostoy) yurishdagi qarshilikni engishga sarflanadi.

Yuritma barabani validagi quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$N_o = (N_1 + N_2) \cdot K_u, kVt$$

Bu yerda:  $N_1$  – materialni haraktlanishi uchun sarflanadigan quvvat, kVt.

$N_2$  – tasmani salt yurishiga sarflanadigan quvvat, kVt.

$K_u$  – konveyerning uzunligiga tasirni hisobga oluvchi koeffitsienti:

$L > 40$  m bolganida  $K_u = 1$

$L = 15 \dots 40$  m bolganida  $K_u = 1,1$

$L < 15$  bolganida  $K_u = 1,25$

Materialni harakatlanish uchun konveyerning quvvatini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$N_1 = \frac{P_k \cdot H}{367} + \frac{P_k \cdot L_r \cdot W}{367}, kVt$$

Bu yerda:  $\frac{P_k \cdot H}{367}$  - materialni balandlikka uzluksiz oqim bilan ko'tarishdagi quvvat;

$\frac{P_k \cdot L_r \cdot W}{367}$  - materialni gorizonta uzunlik  $L_1$  bo'yicha harakatlanishi uchun sarflangan quvvat.

$L_r$  – konveyerning gorizonta proektsiyasi bolib, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$L_r = L_1 + \frac{H}{tg\beta}, m$$

$W$  - yukning haraktlanishidagi umumiy qarshilik koeffitsienti bolib,  $W = 0,035 \dots 0,04$  (tebranma podshipnikdagi rolikli tayanchlar uchun).

Tasmanii salt yurishga sarflanadigan quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$N_2 = K_1 \cdot L_r \cdot V, kVt$$

Bu yerda:  $K_1$  – tasmaning eniga bog'liq bolgan qarshilik koeffitsienti (5-jadval).

$V$  – tasmaning tezligi, m/s.

Dvigatelning talab etilgan quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{dv} = \frac{N_o}{\eta}, kVt$$

Bu yerda:  $\eta$  – baraban yuritmasining f.i.k.  $\eta = 0,75 \dots 0,8$ .

Tasmaning maksimal tarangligi va unga talab qilinadigan qistirmalar sonini hisoblaymiz.

Tasmadagi qistirma (prokladok) lar sonini quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$i = \frac{S_{\max}}{B \cdot P}$$

Bu yerda: B - tasmaning eni, m

P - tasmaning 1 m enidagi bir dona qistirmaga tushadigan ruxsat etilgan yuklama, N/m;

Yuritish (harakatlantiruvchi) barabanni tortish kuchi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_T = \frac{102 \cdot N_{dv}}{V}, \text{ kN}$$

Eylarning formulasidan kelib chiqqan holda, tasmaning maksimal tarangligini hisoblaymiz.

$$S_{\max} = P_T \cdot \frac{e^{\mu\alpha}}{e^{\mu\alpha} - 1}, \text{ kN}$$

Bu yerda: e - natural logorifm asosi;

$\alpha$  - tasma bilan yuritma barabanni qamrash burchagi;

$\mu$  - baraban bilan tasma ortasidagi ishqalanish koeffitsienti.

Beltning B-820 tasmasi uchun ruxsat etilgan yuklama P = 500 N/m hisoblangan qistirmalar soni keltirilgan chegarada bolishi kerak.

Yurituvchi va taranglovchi baraban o'lchovlarini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

Yuritma barabanining diametri  $D_{\text{bar}} = (120 \dots 150) i, \text{ mm}$

Barabanning uzunligi  $l_{\text{bar}} = B + 100, \text{ mm};$

Bu yerda: i – tasmadagi qistirmalar soni.

B – tasmaning eni, m

Taranglovchi barabanning diametri quyidagicha aniqlanadi:  $D_{n.b.} = 100 \cdot i$

2-jadval.

S koeffitsientining qiymatlari.

1	Konveyerning qiyalik burchagi, grad	5-10	11-15	16-18
2	S koeffitsienti	0,95	0,9	0,85

3-jadval.

Rezinalangan tasmaning o'lchamlari.

1	Eni, B, m	0,3	0,4	0,5	0,65	0,8	1,0	1,2	1,4
2	Qistirmalar soni	3...5	3...8	3...9	3...10	3...11	3...11	3...12	3...12

4-jadval.

Tebranish podshipniklari rolklari uchun qarshilik koeffitsienti  $K_1$  ning qiymatlari.

1	Tasmaning eni, B, m	0,4	0,5	0,65	0,8	1,0	1,2	1,4
2	$K_1$ koeffitsienti	0,012	0,015	0,02	0,024	0,03	0,035	0,04

5-jadval

Tasmali konveyerning korsatkichlarini aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar.


№	Korsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Konveyerning ish unumdorligi $P_k$ , t/soat	160	170	180	190	200	210	165	175	185	195
2	Konveyerning gorizontal qismi (uchastkasi)ning uzunligi $L_1$ , m	30	35	40	45	50	55	60	65	70	30
3	Materialning kotarilish balandligi, $H$ , m	10	11	12	13	14	15	16	10	11	12
4	Qiyalik burchagi, $\beta$ , grad	10	12	14	16	18	10	12	14	16	18
5	Bo'laklarning maksimal o'lchamlari, $a_1$ , mm	50	55	60	65	70	75	80	50	55	60
6	Yuritma barabanini qamrash burchagi, $\alpha$ , grad	210	240	240	300	180	240	210	300	180	210
7	Tezligi, $v$ , m/s	1,2	1,3	1,4	1,5	1,6	1,7	1,8	1,2	1,3	1,4
8	Baraban qoplamasi	rezinali			yogochli			rezinali		yogochli	
9	Konveyer ishlaydigan ob-havo sharoiti	quruq			juda nam			quruq		juda nam	
10	Tashiladigan material zichligi	Chaqiq tosh (sheben) $\gamma=1800 \text{ kg/m}^3$						Shagal (graviy) $\gamma=1900 \text{ kg/m}^3$			

6-jadval.

Tasmaning baraban bilan ishqalanishdagi  $\mu$  va  $e^{\mu\alpha}$  koeffitsientlarining qiymatlari.

№	Baraban turi va atmosferaning sharoiti	$\mu$	Qamrash burchagi gradus va radianlari						
			$\frac{180^*}{3,14}$	$\frac{210}{3,66}$	$\frac{240}{4,19}$	$\frac{300}{5,24}$	$\frac{360}{6,28}$	$\frac{400}{7}$	$\frac{480}{8,38}$
1	Choyan yoki polat baraban: havo juda nam (nam atmosfera)	0,1	1,37	1,44	1,52	1,69	1,87	2,02	2,32
2	Yogochli yoki rezini qoplamali baraban: juda nam (nam atmosfera)	0,15	1,60	1,73	1,37	2,19	2,57	2,87	3,51
3	Choyan yoki polat baraban: quruq atmosfera	0,35	3,00	3,61	4,33	6,25	9,02	11,62	18,78
4	Yogoch qoplamali baraban: quruq atmosfera								
5	Rezina qoplamali baraban: quruq atmosfera	0,4	3,51	4,33	5,34	8,12	12,35	16,41	28,56

\* - suratda  $\alpha$  ning qiymti gradusda, maxrajda radianda berilgan.



**4-rasm. Tasmali qo'zg'aluvchan konveyer:**

*a*-umumiy ko'rinish; *b*-kinematik sxemasi; *v*-rolikli tayanchlarda tasmaning joylashuvi. 1-taranlovchi baraban; 2-yuklovchi voronka; 3-konveyerning og'ish burchagini o'zgartiruchi qurilma; 4-tasma; 5,9 –novsimon va tekis roliklar; 6-rama; 7-motor-baraban; 8-tasmani tozalagich(qirgich); 10-qo'zg'aluvchan tayanch; 11-gildirak; 12- qo'zg'almas tayanch; 13-kanat-polispast; 14-boshqaruv pulti.

#### 4 – AMALIY ISH

##### **Mavzu: ARAVACHALI(PRISEPLI) TRAKTORNING TORTISH KUCHINI HISOBLASH**

**Ishning maqsadi:** Traktor turlarini o'rganish, berilgan mavjud sharoitda aravachali traktorni yuk tashish qobiliyatini hisoblash.

##### **Ko'rgazmali qurollar va anjomlar:**

1. Traktorning asl nusxasi.
2. Gildirakli va o'rmalovchi yurish uskunali traktorlarning rangli suratlari.

##### **Ishning bajarilish tartibi:**

1. Gildirakli va o'rmalovchi yurish jihozli traktorlarning umumiy tuzilishini o'rganing.
2. Traktorlarning turlari va tortish sinflari bo'yicha bilimni mustahkamlash.

3. Boshlang'ich ma'lumotlar asosida aravachali traktorning tortish kuchini hisoblang.

Aravachali traktorning umumiy tortish kuchi  $F$  (qarshilik kuchi)ni, traktorning quvvat bo'yicha tortish kuchi  $F_{TR}$  ni toping va berilgan yukni traktor torta olishini aniqlang.

Traktorning harakatlanishidagi qarshilik quyidagicha aniqlanadi:

$$F = F_0 \pm F_1$$

Bu yerda:  $F_0$  – aravachali traktorning gorizontol uchastkada harakatlanishidagi qarshilik kuchi, kN:

$$F_0 = m \cdot f_{y(c)} + (m_1 + m_2) \cdot f_{y^1(c)}$$

Bu yerda:  $m$  - traktor massasi, t.

$m_1$  - aravacha massasi, t.

$m_2$  - aravachadagi yukning massasi, t.

$f_{y(c)}$  - traktorning harakatlanishidagi solishtirma qarshilik, kN/t

$f_{y^1(c^1)}$  - aravachaning harakatlanishidagi solishtirma qarshilik, kN/t.

7–jadval

Harakatlanishdagi solishtirma qarshilik,  $f_{y(c)}$

№	Yo'llarning turlari	o'rmalovchi yurish uskunalari traktorlar	Gildirakli arava (tirkama)lar
1	asfalt yo'llarda	0,5	0,2
2	shagal toshli tekis yo'lda	0,5	0,5
3	tuproq yo'llardi	0,8	0,8

$F_i$  – kotarilishdagi qoshimcha qarshilik bolib quyidagicha aniqlanadi, kN:

$$F_i = (m_1 + m_2 + m) \cdot 10 \cdot \sin \alpha$$

Bu yerda:  $\alpha$  – kotarilishi burchagi, grad.

Traktor dvigateli tomonidan hosil qilinadigan tortish kuchi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{tr} = \frac{3,6 \cdot N \cdot \eta}{v}, \text{ kN}$$

Bu yerda:  $N$  – dvigatel quvvati, kVt;

$\eta$  – 0,85 traktor transmissiyasining F.I.K.;

$v$  – traktorning harakatlanish tezligi, km/soat.

Traktorning harakatlanishida ilashishdagi grunt bilan ogirlik kuchining qarshilik kattaligi (kuchi) yoki traktorning yurish imkoniyatini chegaralovchi ishqalanish qarshiligi quyidagicha boladi:

$$F_{ilash} = 10 \cdot G_{ilash} \cdot \varphi, \text{ kN}$$

Bu yerda:  $G_{ilash} = m \cdot g$  – traktorning ogirlik (ilashish) kuchi, kN

$\varphi = 0,5$  o'rmalovchi yurish jihozli traktorning asfalt yo'lda va haydalgan joydagi ilashish koeffitsienti;

$\varphi = 0,7$  dalada va tuproq yo'lda harakatlengandagi ilashish koeffitsienti.

Berilgan yukni traktor bilan tortish uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$F_{tr} \geq F \leq F_{ilash}$$

8–jadval

Mashina(traktor) ni tortish kuchini hisoblash bo'yicha variant topshiriqlari

t.r.	Korsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1.	Traktor massasi, $m$ t.	12	12,7	15	12	6,5	12,7	15	12,7	25	9,5
2.	Aravachaning yuk bilan birgalikdagi massasi, $m_1+m_2$ .	5,9	16	12	16	3,6	6,4	10	7,5	12	6,5
3.	Kotarilish burchagi, $\alpha$ grad	10	15	5	15	20	10	15	20	15	20
4.	Harakatlanish tezligi, $V$ km/soat.	3,5	5	4,5	4	5	6	5,5	4,5	5	4,5
5.	Dvigatel quvvati, $N$ kVt.	80	96	163	80	55	96	163	96	244	55
6.	Traktorning harakatlanishidagi solishtirma qarshilik, $f$ y(c) kN/t.	Hamma variantlar uchun 0,5									
7.	Aravachaning harakatlanishidagi solishtirma qarshilik, $f$ y <sup>1</sup> (c <sup>1</sup> ) kN/t.	Hamma variantlar uchun 0,2									

## 5 – AMALIY ISH

### Mavzu: BIR CHO‘MICHLI YUKLAGICH VA KRANNING TEXNIK ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH.

**Ishning maqsadi:** Bir cho‘michli yuklagich va yuk kotaruvchi kranning texnik ish unumdorligini aniqlashni o‘rganish.

#### Ko‘rgazmali qurollar va anjomlar

1. Bir cho‘michli yuklagich va yuk kotaruvchi kranning asl nusxalari, rangli suratlari va maketlari.
2. Darsliklar va metodik korsatmalar.

#### Ishni bajarilish tartibi:

1. Bir cho‘michli yuklagich va kranlarning asosiy turlarini va ishlash sharoitlarini o‘rganing.
2. Bir cho‘michli yuklagich va yuk kotaruvchi kranning texnik ish unumdorligini aniqlash hisobini bajaring.
3. Bajarilgan ish bo‘yicha oqituvchiga hisobot bering.

Bir cho‘michli yuklagichning texnik ish unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_t = \frac{3600}{t} \cdot V_k \cdot K_t, m^3 / soat$$

Bu yerda:  $V_k$  – cho‘mich (kovsh)ning sig‘im i,  $m^3$ .  
 $K_t$  – cho‘michning toldirilish koeffitsienti.

Siklning davomiyligi quyidagicha aniqlanadi:

$$t = t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5 + t_6; s$$

Bu yerda:  $t_1 = 15...20$  s – cho‘michni toldirish vaqti;  
 $t_2 = 10...15$  s – cho‘michni transport holatiga ko‘tarish uchun ketgan vaqt;  
 $t_3 = 5...10$  s – cho‘michni tokish balandligigacha ko‘tarish uchun ketgan vaqt;  
 $t_4 = 10...15$  s – boshqarish dastaklarini qoshish (ajralish)ga ketgan vaqt.

Bo'shatish joyiga harakatlanish uchun ketgan vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$t_5 = \frac{\ell}{v}; s$$

Bu yerda:  $\ell$  – yuk olish va bo'shatish joyigacha bolgan yo'l uzunligi, m;  
 $v$  – yuklagichning harakatlanish tezligi. m/s.

Cho'michni yuklash uchun ortga qaytishga ketgan vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$t_6 = \frac{\ell_1}{v_1}, s$$

Bu yerda:  $\ell_1 = 1,5 \cdot \ell$  – bo'shatish joyidan yuklash joyigacha bolgan yo'l uzunligi, m;  
 $v_1 = 2 \cdot v$  – ortacha harakatlanish tezligi, m/sek.

11-jadval

Bir cho'michli yuklagichning ish unumdorligini hisoblash uchun variantlar

№	Korsatkichlar	Bir cho'michli yuklagich										
		1-12	2-13	3-14	4-15	5-16	6-17	7-18	8-19	9-20	10-21	11-22
1.	Cho'michning sig'im $i, V_k, m^3$	1	1,8	1,6	1,5	1,8	1,2	1	1,5	1,4	1,8	1
2.	Cho'michning toldirilish koeffitsienti, $K_t$	1			0,9			1,1			1	
3.	Yuk olgan joydan tokish joyigacha bolgan masofa, $\ell, m$	8	9	10	7	6	8	7	6	9	7	6
4.	Yuklagichning harakatlanish tezligi, $v, m/s.$	1,8	1,5	1,6	1,7	1,6	2,4	2,2	2	3	1,4	2,5



*5-rasm. Bir cho'michli yuklagichning umumiy korinishi*

Kranning texnik ish unumdorligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_t = 3600 \cdot \frac{m \cdot k_y}{t_d}; t/soat$$

Bu yerda:  $m$  - ko'tariladigan yukning massasi, t;  
 $k_y$  - krandan foydalanish koeffitsienti,  $k_y=0,8-0,9$ ;

$t_d$  - bir davr ish baj'arishga sarflangan vaqt, s.

Siklning davomiyligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$t_d = t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5, \text{ s}$$

Bu yerda:  $t_1$  – yukni vertikal bo'yicha ko'tarish (tushirish) vaqti:

$$t_1 = \frac{2 \cdot L_k}{V_3 + V_4}, \text{ s}$$

Bu yerda:  $L_k$  – ilgakning vertikal bo'yicha yo'li uzunligi, m.

Xartumning burishga ketgan vaqt quyidagicha topiladi:

$$t_2 = \frac{2\alpha}{360 \cdot n}, \text{ s}$$

Bu yerda:  $\alpha$  – xartumni bir tomonga burish burchagi;

$n$  – xartumni aylanish chastotasi, ayl/sek.

Kranni harakatlanishiga ketgan vaqt quyidagicha topiladi:

$$t_3 = \frac{l_1}{V_3} + \frac{l_2}{V_4}, \text{ s}$$

Bu yerda:  $l_1 = l_2$  – yuk bilan va yuksiz harakatlanish masofalari, m;

$V_3 = V_4$  – ilgakning yuk bilan va yuksiz tezliklari, m/s;

$t_4 = 40 \dots 150$  s – qol bilan bajariladigan yukni (ishni) ilish, ornatish va ajratish operatsiyalariga ketgan vaqt;

$t_5 = 10 \dots 15$  s – kranni boshqarish paytida harakatlanishlar orasidagi tanaffus vaqti.

12-jadval

Kranning ish unumdorligini hisoblash uchun variantlar

№	Korsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Xartumning burilish burchagi, $\alpha$ grad	140	150	160	170	180	160	140	150	170	140
2	Xartumning aylanish chastotasi, $n$ ayl/sek	0,01	0,01	0,01	0,01	0,02	0,02	0,01	0,01	0,01	0,02
3	Ilgakning yuk bilan harakatlanish masofasi, $l_1$ m	2	4	5	3	2	4	5	3	4	5
4	Ilgakning yuk bilan harakatlanish tezligi, $v_3$ m/s	0,3	0,4	0,5	0,3	0,4	0,5	0,3	0,4	0,5	0,3
5	Ilgakning vertikal bo'yicha yo'li uzunligi, $L_k$ m.	3	4	5	3	3	4	5	3	4	5
6	Ko'tariladigan yukning massasi, t	1,2	1,5	1,6	1,8	1,9	2,0	2,2	2,3	2,4	2,1

## 6 - AMALIY ISH

### Mavzu: BIR CHO'MICHLI EKSKAVATORNING ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH.

**Ishning maqsadi:** Boshlang'ich ma'lumotlar asosida bir cho'michli ekskavatorning ish unumdorligini hisoblashni o'rganish.



### Ishning bajarilishi tartibi:

1. Bir cho‘michli ekskavatorlar togrisidagi ma’lumotlar bilan tanishish.
2. Ekskavatorlarning ish unumdorliklari turlari bilan tanishish.
3. Boshlang‘ich ma’lumotlar asosida ish unumdorligini hisoblang.
4. Bajarilgan ish bo‘yicha oqituvchiga hisobot bering.

Ekskavatorning ish unumdorligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$P_t = \frac{60 \cdot q \cdot n \cdot K_t}{K_{yu}}, m^3 / soat$$

Bu yerda:  $n$  – bir minutdagi texnik sikllar soni,  $n = \frac{60}{t_s}$ ;

Bir siklning davomiyligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$t_s = t_t + t_{bur} + t_{bosh} + t_{bur}, s$$

Bu yerda:  $t_t$  - cho‘michli toldirgichni toldirishga (kavlashga) ketgan vaqt, s.

$$t_t = \frac{l}{v}, s$$

$t_{bur}$  – aylanish platformasini burishga ketgan vaqt, s.

$$t_{bur} = \frac{\alpha_1 + \alpha_2}{360^0 \cdot n}, s$$

Bu yerda:  $\alpha_1, \alpha_2$  - aylanish platformasining yuk bilan va yuksiz burilish burchagi, grad.  
 $n$  - aylanish platformasining bir sekunddagi aylanishlar soni, ayl/s,  
 ( $n=0,01 \dots 0,03$  ayl/s)

$t_{bosh}$  - cho‘michni bo‘shatish ga ketgan vaqt, s ( $t_{bosh}=0,5 \dots 1,5$  s)

$t_{bur}$  - cho‘michni zaboyga burishga (ko‘tarishga va tushirishga) ketgan vaqt.

$$t_{bur} = \frac{h_1}{v_1} + \frac{h_2}{v_2}, s$$

Bu yerda:  $h_1$  va  $h_2$  - ko‘tarish va tushirish masofasi, m

$v_1$  va  $v_2$  - cho‘michni ko‘tarish va tushirish tezligi, m/sek


13-jadval

Cho‘michning toldirilish  $K_t$  va tuproqning yumshatilish  $K_{yu}$  koeffitsentlari

Grunt toifasi	Grunt	Cho‘michning toldirilish koeffitsienti, $K_t$		Yumshatilish koeffitsienti, $K_{yu}$
		Kurak	Draglayn	
I	Qumloq	0,95...1,02	0,8...0,9	1,1...1,2
II	Torf va hosildor (otli)	1,15...1,23	1...1,22	1,2...1,3
III	O‘rtacha soz tuproq	1,05...1,12	0,9...1,0	1,2...1,3
IV	Og‘ir soz tuproq	1,0...1,18	0,98...1,08	1,24...1,32

## Ekskovatorning ish unumdorligini aniqlash bo'yicha topshiriq variantlari

№	Korsatkichlar	Variantlar							
		1-9	2-10	3-11	4-12	5-13	6-14	7-15	8-16
1	Cho'mich sig'im i, $q \text{ m}^3$	0,25	0,3	0,4	0,65	0,8	1	1,25	2,5
2	Grunt toifasi	I	III	III	II	IV	II	III	II
3	Cho'mich toldirish yo'li, $l, \text{m}$	2,0	2,5	2,5	2	3	2	2,5	2
4	Cho'michni ko'tarish yoki tortish tezligi, $v \text{ m/s}$	0,15	0,2	0,2	0,3	0,2	0,25	0,2	0,15
5	Cho'michni ko'tarish va tushirish masofasi, $h_1=h_2 \text{ m}$	3	4	5	6	7	4	5	3
6	Cho'michni ko'tarish va tushirish tezligi, $v_1=v_2 \text{ m/s}$	<u>0,2</u> 1,0	<u>0,1</u> 1,2	<u>0,3</u> 1,5	<u>0,1</u> 1,5	<u>0,3</u> 1,4	<u>0,2</u> 1,0	<u>0,1</u> 1,2	<u>0,2</u> 1,2
7	Aylanish platformasining yuk bilan va yuksiz burilish burchagi, grad, $\alpha$	90	170	110	180	150	140	80	90
8	Ish uskunasi turi	Teskari kurak				To'g'ri kurak			



6-rasm. Ekskovator kompanovkasi:

a-asosiy qismlari; b-ekskovator yigmasi; 1-ish uskunalari; 2-dvigatel; 3-kapot; 4-kuch transmissiyasi (gidroapparaturalar); 5-kabina; 6-asosiy ramasi (burilish platformasi); 7-yurish qismi.

## 7- AMALIY ISH

### Mavzu: KO'P CHO'MICHLI EKSKAVATORLARNING ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH

**Ishning maqsadi:** Boshlang'ich ma'lumotlar asosida ko'p cho'michli ekskavatorning ish unumdorligini hisoblashni o'rganish.

#### Ishning bajarilishi tartibi:

1. Ko'p cho'michli ekskavatorlar togrisidagi ma'lumotlar bilan tanishing.

2. Ekskavatorlarning ish unumdorliklari turlari bilan tanishish.
3. Boshlang'ich ma'lumotlar asosida ko'p cho'michli ekskavatorning ish unumdorligini hisoblang.
4. Bajarilgan ish bo'yicha o'qituvchiga hisobot bering.

Keltirilgan formula va Boshlang'ich ma'lumotlar asosida 16-jadvaldan berilgan variantlar topshiriqlari bo'yicha ko'p cho'michli ekskavatorning ish unumdorligini aniqlang.

Ko'p cho'michli ekskavatorning texnik ish unumdorligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi ( $m^3/soat$ ):

$$P_t = 0,06 \cdot q \cdot n_z \cdot \frac{K_t}{K_{yu}} m^3/soat;$$

Bu yerda:  $q$  - cho'mich sig'im i litr hisobida;

$n_z$  - cho'michning bir minutdagi yukdan boshatilish soni,  $min^{-1}$ ;

zanjirli ish jihozlari uchun 
$$n_z = \frac{60 \cdot V_{ch}}{T_{ch}}$$

rotorli ish jihozlari uchun  $n_z = z_k \cdot n_r$ , ga teng

$V_{ch}$  - zanjirli cho'michning tezligi, m/s;

$T_{ch}$  - cho'michning odimi,  $T_{ch} = 0,5 \dots 0,7$  m. ga teng;

$z_k$  - rotordagi cho'michlar soni;

$n_r$  - rotorning aylanish tezligi, ayl/min;

$K_t, K_{yu}$  - tegishli ravishda cho'michning hajmdan foydalanish va tuproqning yumshatilish koeffitsientlari.

Harakatlanish uchun kerakli ishchi tezlik quyidagicha hisoblanadi:

$$V = \frac{P_t}{h_h \cdot b_h}, m / soat$$

Bu yerda:  $h_h$  va  $b_h$  - tegishli ravishda ishlov berilayotgan xandakning chuqurligi va tubining enidir, m

15-jadval.

Tuproqning ishlov berish qiyinligiga bog'liq bolgan cho'michning hajmdan foydalanish va tuproqning yumshatilish koeffitsienti qiymatlari

Tuproq guruhi	Tuproqlarning nomlanishi	Koeffitsientlarning qiymatlari	
		$K_t$	$K_{yu}$
I	Qum, qumoq, yumshoq va o'rtacha maydalangan qo'shimchalarsiz sog' tuproq	0,8...0,9	1,05...1,16
II	Qoshimchalarsiz sog' tuproq, o'rtacha va mayda shag'al, yumshoq nam yoki yumshatilgan loy	0,9...1,06	1,14...1,26
III	Qattiq sog' tuproq, ortacha, qattiq nam yoki yumshatilgan loy, juda yumshoq argelit va alevritlar	1,18...1,26	1,24...1,3

IV	Qattiq sog' tuproq, qattiq va juda qattiq loy, loyli slanets va yumshoq, keglomyerint	0,95...1,0	1,28...1,37
----	---	------------	-------------

16– jadval.

Ekskavatorning ish unumdorligini aniqlash bo'yicha variant topshiriqlari.

№	Korsatkichlar	Variantlar								
		1-9	2-10	3-11	4-12	5-13	6-14	7-15	8-16	
1	Cho'mich sig'im $i, q, l$	18	20	22	25	140	160	85	90	
2	Grunt toifasi	I	II	I	II	II	I	II	I	
3	Ish uskunasi turi	Zanjirli				Rotorli				
4	Xandak (transheya) chuqurligi, $h_h, m$	3,5	3,0	2,5	2,0	2,0	2,2	2,4	2,5	
5	Xandakning eni $b_h, m$	1,0	0,8	0,65	0,7	1,2	1,5	0,9	0,8	
6	Bo'shatish davomiyligi, $t_{bosh}, S$	0,25	0,25	0,25	0,3	0,3	0,3	0,25	0,25	
7	Rotorning aylanish tezligi, $n, ayl/min$	-	-	-	-	7,8	9,6	7,2	7,4	
8	Zanjirli cho'michning tezligi, $V_{ch}, m/s$	0,6	0,8	1,0	1,2	-	-	-	-	
9	Rotordagi cho'michlar soni, $z_k, dona$	-	-	-	-	14	14	16	16	



7-rasm. ETR-224A rotorli ekskavator.

## 8- AMALIY ISH

### MAVZU: BULDOZERLARNING ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH

**Ishning maqsadi:** Buldozerning texnik ish unumdorligini hisoblash o'rganish.

#### Ko'rgazmali qurollar va anjomlar

1. Buldozerning rangli suratlari.
2. Buldozer ish uskunasining maketi.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Buldozerlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Buldozerlarning tuzilishlari va qo'llanilish sohalarini o'rganing.
3. Berilgan variantlar topshiriqlari bo'yicha buldozerning texnik ish unumdoligini aniqlang.
4. Bajarilgan ish bo'yicha o'qituvchiga hisobot bering.

**Hisoblashni amalga oshirish:**

Har bir variant bo'yicha jadvaldan buldozerning ish unumdorligini hisoblashdagi formulaga kiruvchi kattaliklarni aniqlab oling.

Buldozerning texnik ish unumdorlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Pi_T = 3600 \cdot V_{\text{IP}} \cdot \frac{K_{V(K)}}{t_{\text{II}} \cdot K_p}, \text{ m}^3/\text{soat}$$

Bu yerda:  $V_{\text{PR}}$  – buldozer ag'dargichi bilan suriladigan prizmatik gruntning hajmi.

Buldozer ag'dargichi oldidagi prizmatik grunt hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_{\text{IP}} = \frac{BH^2}{2 \cdot K_{\text{IP(III)}}}, \text{ m}^3$$

Ishlash paytidagi sikl doimiyliqi quyidagicha aniqlanadi:


$$t_u = \frac{\ell_1}{V_1} + \frac{\ell_2}{V_2} + \frac{\ell_3}{V_3} + n t_n + t_0, \text{ c.}$$

Qiyalik koeffitsiyenti jadval bo'yicha olinadi (talaba tanlovi bo'yicha tushish yoki ko'tarilish olinadi).

14-jadval

$K_{Q(U)}$  qiyalik koeffitsiyenti

Qiyalik %	Kq	Ko'tarilish %	Kq
5	1,33	5	0,67
10	1,8	10	0,5
15	2,3	15	0,46
20	2,7		



7-rasm. Buldozer:

a-yondan koʻrinishi; b-burilmaydigan agʻdargichli buldozerning planda koʻrinishi; v-buriladigan agʻdargichli buldozerning planda koʻrinishi; g-agʻdargichni qiyalatish (burish); d-almashinuvchi ish jihozlari.

15-jadval

Buldozer ish unumdorligini hisoblash uchun topshiriq variantlari

t.r	Koʻrsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1.	Agʻdargich eni, V m	3,2	3,9	4	3,9	4	3,9	3,2	4	3,9	3,2
2.	Agʻdargich balandligi, N m	0,6	0,5	0,8	0,8	0,6	0,8	1,0	0,6	0,6	0,8
3.	Agʻdargich profili (shakli) koeffitsiyenti	0,8-0,9	0,8-0,9	0,8-0,9	0,8-0,9	0,8-0,9	1,2-1,3	1,2-1,3	1,2-1,3	1,2-1,3	1,2-1,3

	K sh(pr)										
4.	Kesim yo'li uzunligi, $l_1$ m	3,6	3,2	5	5	3,7	5	7,5	3,7	4	3,2
5.	Surish yo'li uzunligi, $l_2$ m	40	45	50	55	60	50	45	40	60	45
6.	Ortga qaytish yo'li uzunligi, $l_3$ m	44	48	55	65	64	55	53	44	64	48
7.	Kesish tezligi, $V_1$ m/s	0,7	0,7	0,5	0,7	0,6	0,7	0,7	0,5	0,5	0,7
8.	Surish tezligi, $V_2$ m/s	1,1 ... 1,2									
9.	Ortga qaytish tezligi, $V_3$ m/s	1,5 ... 1,6									
10.	Sikl mobaynida tezliklarni almashtirish soni, n	3 ... 4									
11.	Uzatmalarni almashtirishga ketgan vaqt, $t_n(a)$ , s	4 ... 5									
12.	Ag'dargichni tushirishga ketgan vaqt, $t_a$ , s	1 ... 2									

## 9 - AMALIY ISH

### MAVZU: SKREPERLARNING ISH UNUMDORLIGINI HISOBLASH

**Ishning maqsadi:** Avtoskreperning ekspluatatsion ish unumdorligini hisoblashni o'rganish.

#### Ko'rgazmali qurollar va anjomlar

1. Avtoskreper va avtogreyderlarning rangli suratlari.
2. Avtoskreper (yoki tirkama) va avtogreyderlarning modellari.

#### Ishning bajarilish tartibi:

1. Skreperlar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Skreperlarning tuzilishi va qo'llanilish sohasini o'rganing.
3. Berilgan variantlar topshiriqlari bo'yicha avtoskreperning ekspluatatsion ish unumdorligini aniqlang.
4. Bajarilgan ish bo'yicha o'qituvchiga hisobot bering.

#### Hisoblashni amalga oshirish:


Har bir variant bo'yicha jadvaldan avtoskreperning ish unumdorligini hisoblashdagi formulaga kiruvchi kattaliklarni aniqlab oling.

Avtoskreperning ekspluatatsion ish unumdorlini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Pi_{\text{э}} = 3600 \cdot V_{K(\text{ч})} \cdot K_{H(T)} \cdot \frac{K_B}{t_{\text{II}}} \cdot K_{P(\text{IO})}, \text{ m}^3/\text{soat}$$

Suruvchi (tolkach) bilan ishlagandagi sikl davomiyligi:

$$t_y = \frac{l_1}{V_1} + \frac{l_2}{V_2} + \frac{l_3}{V_3} + \frac{l_4}{V_4} + n_a \cdot t_a + n_{\text{б}} \cdot t_{\text{б}} + t_m, \text{ cek}$$



8- rasm. Yarim tirkalma DZ-74 skreperi: 1-traktor; 2-uyali tirkash qurilmasi; 3-tortish ramasi; 4-zaslonkani boshqarish gidrosilindri; 5-zaslonkani boshqarish mexanizmi; 6-kovshni ko'taruvchi gidrosilindr; 8-kovsh; 9-ketingi devor; 10-g'ildiraklar

16-jadval

**Avtoskreperning ish unumdorligini hisoblash uchun topshiriq variantlari**

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1.	Cho'mich (kovsh) sig'imi, Vch, m <sup>3</sup>	7	3	3	7	8	10	15	3	7	8
2.	Cho'michning to'ldirish koeffitsiyenti, Kt	1,1 ... 1,25									
3.	Vaqt bo'yicha foydalanish koeffitsiyenti, Kv	0,8 ... 0,9									
4.	Gruntning yumshatilish koeffitsenti, Kyu	1,2 ... 1,4									
5.	Gruntni kavlash yo'li uzunligi, l <sub>1</sub> m	20..50	15..25	15..25	20..50	30..60	30..60	35..70	15..25	20..50	30..60
6.	Yuk bilan yurish yo'li uzunligi, l <sub>2</sub> m	250	100	100	250	280	350	500	100	250	280
7.	Bo'shatish yo'li uzunligi, l <sub>3</sub> m	6..15	4..8	4..8	6..15	6..15	9..23	12..24	4..8	6..15	6..14
8.	Salt (xolostoy) yurish yo'li uzunligi, l <sub>4</sub> m	270	130	130	270	330	420	560	130	270	340



9.	Gruntni kavlash tezligi, $V_1$ m/s	0,8	1,25	1,25	0,8	1	0,65	0,5	1,25	0,8	1,1
10.	Yuk bilan yurish tezligi, $v_2$ m/s	4	2	2	4	5	5	6	2	4	5
11.	Bo'shatish tezligi, $v_3$ m/s	0,6	1,1	1,1	0,6	1	0,9	0,8	1,1	0,6	1
12.	Salt yurish tezligi, $v_4$ m/s	5	2,5	2,5	2	6	8	8	2,5	5	6
13.	Uzatmalarni qo'shib – ajratish soni, $p_{QA}$ .	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4
